

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабинова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдуғани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухраҳон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

## 1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

## 2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

## 3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

## 4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

## 5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

## 6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

## 7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

## 8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

## 9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

## 10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

## 11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

## 12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

## 13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Adilova Rayxon,**

О‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti  
e-mail: adilova.raykhon@mail.ru

### IBN SINONING “SIYOSAT” RISOLASIDA “DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT” NAZARIYASI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498645>

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada buyuk alloma, donishmand, faylasuf, davlat arbobi va betakror ilm sohibi Abu Ali ibn Sinoning noyob asarlaridan biri bo‘lgan “Siyosat” risolasi haqida fikr yuritiladi. Bu risolada mutafakkir davlat boshqaruvi hamda axloqiy boshqaruv tamoyillarini iyerarxik tizimi sifatida tasniflaydi. Buyuk mutafakkir o‘zining bu nodir risolasi “siyosat” tushunchasini inson uchun nechog‘lik muhimligini ochib beradi. Bunda Ibn Sino inson siyosatni avvalambor o‘zidan boshlashi, so‘ngra oilasiga va farzandlariga bo‘lgan siyosati, shundan so‘ng esa qo‘l ostida ishlaydigan xizmatchilarga bo‘lgan siyosat haqida batafsil, hayotiy misollar va o‘g‘itlar orqali uqtiradi.

**Kalit so‘zlar:** Ibn Sino, oila, “Siyosat” risolasi, siyosat, inson, davlat, boshqaruv, rahbar, komil inson.

**Адилова Райхон,**

докторант

Академии государственной политики и управления  
при Президенте Республики Узбекистан  
e-mail: adilova.raykhon@mail.ru

### ТЕОРИЯ «ГОСУДАРСТВА ВНУТРИ ГОСУДАРСТВА» В ТРАКТАТЕ ИБН СИНЫ «СИЁСАТ»

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается один из уникальных трудов великого учёного, мыслителя, философа, государственного деятеля Абу Али ибн Сины – трактат «Сиёсат» («Политика»). В этом трактате мыслитель классифицирует принципы государственного управления и нравственного управления как иерархическую систему. Великий мыслитель в этом редком трактате раскрывает, насколько важно понятие «сиёсат» (управление/политика) для человека. При этом Ибн Сина подробно, через жизненные примеры и наставления, разъясняет, что человек должен начинать управление прежде всего с самого себя, затем – с управления своей семьёй и детьми, и лишь после этого – с управления подчинёнными ему слугами.

**Ключевые слова:** Ибн Сина, семья, трактат «Сиёсат», политика, управление, человек, государственное управление, руководитель, совершенный человек.

**Adilova Raykhon,**  
PhD Researcher,  
Academy of Public Policy and Administration  
under the President of the Republic of Uzbekistan  
e-mail: adilova.raykhon@mail.ru

## THE THEORY OF “STATE WITHIN A STATE” IN IBN SINA’S TREATISE “SIYOSAT”

### ABSTRACT

This article examines one of the unique works of the great scholar, sage, philosopher, and statesman Abu Ali ibn Sina – the treatise “Siyosat”(“Politics”/“Governance”). In this treatise, the thinker classifies the principles of state administration and moral governance as a hierarchical system. In this remarkable treatise, the great thinker reveals how essential the concept of “siyosat” (governance/politics) is for a human being. Ibn Sina explains in detail – through life examples and teachings – that a person must begin governance first with themselves, then extend it to their family and children, and only afterward to the servants under their authority.

**Keywords:** Ibn Sina, family, treatise “Siyosat”, governance/politics, human being, state administration, leader, perfect man.

### KIRISH

Ibn Sinoning “Siyosat” risolasi axloq va davlat boshqaruviga oid qarashlarining bir qismi hisoblanadi. Bu risolada alloma hukmronlik va axloqiy boshqaruv tamoyillarini muhokama qiladi. Biz Ibn Sinoning “Kitob as-Siyosat” risolasini o’rganar ekanmiz, mutafakkir jamiyat boshqaruvini avvalambor individual axloqiy tarbiyadan boshlab, oilaviy tizimlarga, undan so’ng samarali davlat boshqaruvi bilan yakunlaydi. Biz allomaning ko’pgina risolalari, “Hay ibn Yaqzon”, “Salomon va Ibsol”, “Ishq”, kabi risolalari bilan tanishmiz, lekin uning “Kitob as-Siyosat” risolasi bizda deyarli o’rganilmagan. Allomaning ijtimoiy-siyosiy qarashlari horijda keng o’rganilgan bo’lib, Sharqda eronlik olimlar: Said Husayn Nasr, Al Naqib, Ali Muhammad Isbir, Muhsin Kadivar, G’arbda esa Dmitriy Gutas, Gudman, Genri Korbin, Gerbert Davidson kabi ko’plab olimlar uning siyosiy qarashlarini chuqur tahlil qilishgan. Biz tadqiqotimiz jarayonida bu olimlarning “Siyosat” risolasiga bergan sharhlari bilan tanishib chiqdik va suriyalik tadqiqotchi, akademik Ali Muhammad Isbir tomonidan qilingan sharhga to’xtaldik.

### METODOLOGIYA

Ibn Sinoning “Kitob as-Siyosat” risolasini o’rganishda zamonaviy tadqiqot metodlari, hujjatlar bilan ishlash, qiyosiy-tarixiy, germeneytik hamda transformatsion yondashuv asos qilib olindi. Ushbu maqolada tadqiqotning metodologik asosi, ob’ekti va predmeti, ma’lumotlar manbai va qollanilgan metodlar tizimli ravishda ochib berildi. Tadqiqot sotsiologik nazariyalar, asosan, Emil Dyurkgeym [1], M. Veber [2], P. Burd’yo [3], T. Parsons [4] kabi olimlarning ijtimoiy integratsiya, legitimlik, ijtimoiy kapital va funksional tizimlar nazariyalariga tayanadi. Ayniqsa, E. Dyurkgeymning “Ijtimoiy birdamlik”, “Mehnat taqsimoti” tushunchalari risoladagi kasblar tasnifini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

Ibn Sinoning “Kitob as-Siyosat” kitobning birinchi nashri akademik Ali Muhammad Isbir tomonidan ilk bor 2007-yilda Suriyada chop etilgan. Mazkur kitob 100 sahifadan iborat bo’lib, 50 sahifagacha tadqiqotchi Ibn Sinoning avtobiografiyasi va o’zining bu risola haqidagi sharhlarini beradi va qolgan 50 sahifasida esa Ibn Sinoning “Siyosat” risolasining ayni o’zini keltiradi. Mutafakkirning “Siyosat” risolasi arab tilida yozilgan bo’lib, yettita bobni o’z ichiga oladi. “Siyosat” risolasining boblari quyidagilar:

- I. Odamlarning bir-birlaridan afzalligi
- II. Siyosatning zaruriyati
- III. Erkak (inson)ning o’z nafsini boshqarishi siyosati;

IV. Erkak (inson)ning daromadi va xarajati ni boshqarish siyosati

V. Erkak (inson) ning o'z oilasini boshqarishi siyosati

VI. Erkakning o'z farzandiga bo'lgan siyosati;

VII. Erkakning o'z xizmatkorlarini boshqarish siyosati.

I. Odamlarning bir-birlaridan afzalligi bobida Ibn Sino insonlar o'rtasidagi tabiiy tafovutlar, raqobat, hasad hamda ularning jamiyatdagi o'rni borasida fikr yuritadi. U shunday fikr bildiradi: "Aql egalari biladilarki, agar barcha odamlar podshoh bo'lsalar, oxiri bir - birlari bilan kurashib halok bo'ladilar, agarda barchasi kambag'al va quyi tabaqa bo'lsa, hammalari halokatga yuz tutadilar. Xuddi shuningdek, ular boylikda teng bo'lsalar, hech kim ularga xizmat qilmas edi, hatto yaqin qarindosh ham yordam bermas edi. Agar faqirlikda teng bo'lsalar, baxtsizlik hamda qahatchilikdan o'lib ketgan bo'lar edilar" [5].

Ko'rinib turibdiki, jamiyat a'zolarining tabiiy tengsizligi butun ijtimoiy tizimning uyg'un ishlashiga hamda ularning bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Demak har bir inson o'z martabasiga mos holatda huquq va majburiyatlariga ega bo'lishi lozim. Bu tartibning buzilishi esa davlat boshqaruvida betartiblik va fitnalarni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga Ibn Sino hunarmandlarning jamiyatdagi o'rni va o'z qobiliyatlari tufayli o'z hollarini saqlab qolishlari hamda keng saltanat egasi, mulk sohiblariga hasad qilmasliklari haqida so'z boradi. Hunar orqali erishilgan boylik har qanday tasodifan kelgan boylikdan afzal degan g'oyani ham ilgari suradi alloma.

II. Siyosatning zaruriyati. Odamlar o'rtasidagi fazilat va darajalar haqida ma'lumot bergandan so'ng Ibn Sino davlat boshqaruvi olib boriladigan siyosat har bir inson uchun juda muhimligini uqtirib o'tadi. Mazkur bob quyidagi allomaning bebaho so'zlari bilan boshlanadi: "Dunyoning boshqarilishidagi hikmatni, siyosatning chiroyli mohirlik bilan yuritilishi hamda boshqaruvning oliy darajada puxtaligini tafakkur qilishga eng haqli va eng avvalo kimlar loyiq? Albatta, hukmdorlar ya'ni podshohlar! Parvardigor ularning qo'llariga bandalarning jilovini bergan, ularga mamlakatlarni boshqarishni mulk qilib bergan, xalq ishini ularga topshirgan hamda fuqarolarni boshqarish ham ularga havola qilingan. Ulardan so'ng viloyatlarni boshqarish uchun hokimlar keladi. So'ngra ulardan keyin ne'mat egalari, yaqin ko'makchilar hamda xizmatkorlarning sarkardalari keladi. Ulardan so'ng oila sohiblari, ahli yor va bolalarni tarbiya qiluvchilar keladi. Vaholanki, bularning har birisi o'z himoyasidagi, o'z rahnamo qo'l ostidagi hamda o'z buyrug'u taslig'i bilan ish yuritadigan kishilar uchun rahbardir. Ularning eng kichik martabalisi, eng yengil yuklisi, eng tang ahvoldagisi, eng nozik yuklisi, barchasi go'zal siyosat va boshqaruvga muhtojdir" [6].

Bunda mutafakkir siyosat inson hayoti uchun juda muhim ekanligini, bu faqat davlat rahbari uchun xos emas, balki har bir oila boshlig'i, insoniyat uchun ham zarurligini uqtiradi. Shayx ur-ra'is siyosatning zarurligi borasidagi asosiy g'oyasi shundan iborat ediki, u siyosat faqat podshohlar uchun emas, har bir inson yoki oila boshlig'i ham siyosatchidir, podshoh bilan fuqaro o'rtasida bu borada farq yo'q, deb aytadi. Uning fikricha, hamma shu tabiiy jarayondan o'tadi, shuning uchun ham barcha kattayu kichik yaxshi boshqaruv san'atini o'rganishi lozim. Shundan so'ng Ibn Sino siyosatni inson avvalambor o'zidan boshlashi kerakligini uqtiradi va bu masala insoniyat uchun, bo'lg'uvsi davlat rahbarlari uchun juda muhim ekanligi aytib o'tadi. Quyida insoniyat uchun boshqaruv va siyosatni iyerarxik tarzda ochib beradi.

III. Erkak (inson)ning o'z nafsini boshqarishi siyosati bobida Ibn Sino davlat boshqaruvini eng avvalo insonning ichki tartibi hamda o'z-o'zini boshqarish qobiliyati bilan bog'laydi. Uning fikricha, siyosat insonning o'zini boshqarishdan boshlanadi. Ya'ni, har bir inson o'z nafsini nazorat qila olishi, o'z xatti-harakatlarini tartibga solishi, aqlini hissiyotlaridan ustun qo'yishi kerak. Ya'ni inson o'zi bilan bog'liq siyosatda axloqiy va ma'naviy kamolotga erishishni asosiy maqsad qilib olishi lozim.

Mazkur bob insoniyatning butun ijtimoiy-siyosiy ta'limotining poydevorini tashkil etadi. Chunki shaxsiy tartib bu ijtimoiy tartibning asosi hisoblanadi. Ibn Sino shunday deydi: - "insonning o'zi aqli buzuq, ruhi yomonlikka moyil va ko'p nuqsonlarga ega ekanligini bilishi, uning tabiatidagi nuqsonlar va fe'l-atvorining asli o'ziga xosligi, har bir kishi bularni isloh qilishni istashi lozim" [7].

Demak, har bir kishi siyosatni o'zidan boshlashi uchun o'z-o'zini boshqarishi, nafsini tarbiyalashi, ichki dunyosida tartib o'rnatishi, o'zida bo'lgan yomon xislatlarni ko'ra bilishi va o'zini

nazorat qila olishi lozim. Bir soʻz bilan aytganda inson oʻz ruhi va tanasining “hukmdori” boʻlishi kerak. Agar davlat rahbari gʻazab va ochkoʻzlik kabi illatlarga berilsa, davlat boshqaruvida korrupsiya va adolatsizlik kuchayadi. Bu esa mamlakatni tanazzulga keltiradigan asosiy omillardan biridir. Shu sabab, insonning oʻzi bilan bogʻliq siyosati bu uning qonunlarga birinchilardan boʻlib itoat qilishidir. Nafsini jilovlay oladigan inson yoki rahbar adolatli, halol va sabrli boʻladi. Inson har doim ham oʻz nafsini boshqara olmaydi, chunki inson tabiatan oʻziga yumshoq munosabatda boʻladi. Shuning uchun ham alloma inson oldida doimo unga mehribon, maslahatchi va unga oyna kabi goʻzal tomonlarini goʻzal, yomon taraflarini yomon koʻrsatadigan doʻsti boʻlishi kerak deydi. Shunday doʻstlarga eng muhtoj boʻladiganlar bu rahbarlardir, deydi u. Afsuski, hamma rahbarlar ham yaxshi, sodiq va rosgoʻy maslahatchi doʻstga ega emas. Bu haqida Ibn Sino rahbarlarning eng katta xatosi bu ularning xatosini yuziga aytadigan hamda ularni tanqid qiladigan yaqin doʻstining boʻlmasligidir, deydi.

IV. Erkak (inson)ning daromadi va xarajatini boshqarish siyosati haqidagi bobda insonning daromadi va xarajatlarga nisbatan siyosati haqida soʻz bor ib, bunda Ibn Sino odamlarni kuch-qudratga boʻlgan ehtiyoji va hayot ehtiyojlarini uni rizq izlashga hamda hayotiy ehtiyojlarni olishga intilishga chaqiradi. Alloma tirikchilik nuqtayi nazaridan odamlarni ikki guruhga boʻladi:

1. Daromadi oʻz ehtiyojlarini qondirishga yetadigan aholi qatlamlari vakillari;
2. Daromadi xarajatiga yetmaydigan odamlar toifasi.

Mutafakkir insonlarni ikki guruhga boʻlishining sababi ijtimoiy-iqtisodiy haqiqatni aks ettirishdir. Uning fikricha, daromadi ehtiyojlarini qoplaydiganlar, yaʼni oʻzlari va oilasi uchun zarur boʻlgan oziq-ovqat, tibbiy xizmat, taʼlimni hamda uy-joyi taʼminlay oladiganlar birinchi guruhga mansub kishilardir. Ikkinchi guruh aʼzolari esa daromadi oʻzining xarajatlarga yetmaydiganlar, yaʼni qarzdorlik, doimiy tanglik hamda ijtimoiy himoyasizlikka uchraganlardir.

Ibn Sino kasblarni ham tasniflagan hamda ularni uch guruhga boʻlib oʻrgan gan:

1. Aql bilan bogʻliq hunarlar – fahm-farosat bilan bogʻliq kasblar(davlat rahbarlari, amirlar, vazirlar, siyosat ahllari va h.k).
2. Ilm – fan bilan bogʻliq hunarlar qoplaydigan - ilm ahli, adabiyot, musiqa, naqqoshlik, rassomlik, sanʼat hamda barcha ilmlar bilan bogʻliq kasblar.
3. Jismoniy kuch va jasorat bilan bogʻliq kasblar – jasorat, harbiy mahorat, kuch-quvvat, jangovorlik, askarlar sanʼati bilan bogʻliq kasblar [8].

Allomaning bu tasniflar orqali kasblarni shunchaki boʻlib oʻrganish emas, balki jamiyatda ularning qanday ishlashini nazariy jihatdan ochib berishdir. Yaʼni birinchi tasnif boʻyicha davlat boshqaruvida jamiyat aql bilan boshqariladi, bunda rahbarlar adolat va siyosiy barqarorlikni taʼminlaydi. Ikkinchi tasnifda jamiyat maʼrifat va madaniyat bilan rivoj topadi, bunda davlat boshqaruvida ilm- fan va sanʼat ahli jamiyatni maʼnan yuksaltirish hamda taʼlim -tarbiyani rivojlantirishda katta rol oʻynaydi. Uchinchi tasnifda esa davlatning xavfsizligi va himoyasi aynan jasoratli, kuch-qudrat egalari boʻlgan harbiylar vazifasi ekanligi tushuntiriladi. Demak, yuqoridagi uch tasnif kasblari bir-biri muvozanatda boʻlgandagina boshqaruv barqarorlikka erishadi.

Shu bilan birga, Ibn Sino bu bobda zaruratdan ortiq daromadlarning sarflanishi haqida toʻxtalib, bu daromad sadaqa va zakotda, qisman xayrli ishlarga hamda muhtoj paytlar uchun zaxira sifatida sarflanishi kerakligi haqida toʻxtalib oʻtadi. Demak, insonning iqtisodiy tartibi siyosatning kichik koʻrinishi boʻlib, davlat boshqaruvining katta koʻrinishidagi modeli hisoblanadi. Yaʼni, daromad topish va uni xarajat qilish oʻziga xos aql hamda meʼyorni talab qiladi. Agar inson oʻz ehtiyojlarini isrofgarchilikka sarflamay, toʻgʻri taqsimlasa, oʻz hayotidagi barqarorlikni taʼminlaydi. Davlat boshqaruvida ham budjet va resurslardan oqilona foydalanilsa, jamiyatda iqtisodiy barqarorlikni taʼminlagan boʻladi.

V. Erkak (inson)ning oʻz oilasini boshqarishi siyosati bobida Ibn Sino oilani jamiyatning eng kichik, lekin eng muhim instituti sifatida talqin etadi. U ayolni saltanatga sherik, mol-dunyoning qoʻriqchisi, erkakning noibi deb biladi. Mazkur bob shunday soʻzlar bilan boshlanadi: – “Soliha ayol erining mulkidagi sherigi, mol -mulkidagi qadr-qimmat hamda uydagi oʻrinbosaridir. Eng yaxshi ayol – aqlli, faol, farosatli, mehribon, koʻp farzandli, kamtarin, eriga itoatkor, nasihatgoʻy, pokiza, sir saqlovchi, ogʻir-bosiq, salobatli, qaddi-qomati kelishgan, xizmatda epchil boʻlgan, oqila, erini birini

ikki qiladigan, go‘zal xulqi bilan uning g‘amlarini yengillashtiradigan va muloyim muomalasi bilan qayg‘ularini ketkizadigan ayoldir.” [9].

Demak, alloma ayolning oiladagi o‘rnini mukammal bir portret sifatida ko‘radi. Bunda u ayolni shunchaki uy bekasi emas, balki oilaning ma‘naviy hamda strategik ustuni sifatida ta‘riflaydi. Uning tasavvuridagi ayol bu yuksak axloq hamda nafis nazokatning uyg‘unligi hisoblanadi. Ayol erining eng yaqin maslahatgo‘yi, ruhiy orombaxshi va o‘z uyining zukko hamda oqila boshqaruvchisidir. Bunday qarashlar makon va zamon tanlamaydi, albatta. Har bir zamonda bu fazilatlarga ega bo‘lgan ayol oilani nafaqat moddiy, balki ma‘naviy jihatdan ham boyitadi. Shu bilan birga har bir rahbarning ruhiy holati va boshqaruvda qarorlar qabul qilishi uning xotirjamligi ichki siyosatidagi tinchligiga bog‘liq. Shu sabab alloma ayolni emotsional xavfsizlikning kafolati sifatida ko‘radi.

Ibn Sinoning bu qarashlarini davlat boshqaruvining kichik modeli sifatida talqin qilish mumkin. Ya‘ni, alloma ayolni “uydagi o‘rinbosar” deganda, boshqaruvdagi eng asosiy tizim – muhim vakolatlarni topshirish prinsipiga tayanadi. Darhaqiqat, davlat boshqaruvida ham rahbar hamma narsani yakka o‘zi nazorat qila olmaydi, bu uchun uning avvalo vakolatli va ishonchli o‘rinbosari bo‘lishi lozim. Bu esa boshqaruv tizimining barqarorligini ta‘minlaydi. Xuddi shunday “birini ikki qiladigan” deganda davlat resurslaridan oqilona foydalanib, boshqaruv uchun bosh mezon hisoblangan kapitalni ko‘paytirish nazarda tutiladi. Bu esa davlatning samaradorlik ko‘rsatgichidir. Xuddi shunday “xushmuomalali, aqlli, qarosatli, epchil va faol” kabi qarashlari boshqaruvdagi rahbarlar qiyofasi sanaladi.

VI. Erkakning o‘z farzandiga bo‘lgan siyosati bobida Ibn Sino boshqaruv nazariyasi va amaliyotining ilmiy asosini farzand tarbiyasi orqali belgilab beradi. Bunda oiladagi farzand tarbiyasi qanday bo‘lsa, kelajakdagi davlat boshqaruvi va jamiyat hamda siyosiy tizim ham mana shunday tarbiyaning natijasi sifatida shakllanib boradi.

Biz bilamizki, yosh bolaning ongi va qalbi kelajakda shakllanib borayotgan fuqaroning “davlat”i sanaladi va bu qanday asoslar bilan qurilsa, davlat boshqaruvidagi siyosiy tizim ham shu asosda faoliyat yuritadi. Agar bola rostgo‘y, odob- axloq, vatanparvar, adolat hamda olijanob fazilatlar bilan tarbiyalansa, u kelajakda oilasida, ish faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda hamda davlat boshqaruvida adolatli rahbar va ijobiy fuqaro bo‘ladi.

“Yomon xulqlar go‘dakka tezda keladi va yomon odatlar unga yopishib oladi. Agar bulardan birortasi unga mustahkam bo‘lib qolsa, u g‘olib bo‘ladi. Shunda go‘dak undan ajralib chiqa olmaydi va undan voz kecha olmaydi.”-deydi alloma [10].

Shu sabab, bu bobda Ibn Sino ta‘lim tarbiyani bolaning tug‘ilishidan boshlash kerakligiga ishora qilib, farzandlarning ota-onalari ustidagi huquqlariga: ya‘ni go‘zal ism tanlash, unga sut berish uchun oqila kanizak ya‘ni ayolni tanlash, bola sutdan ajratilgandan so‘ng unga yaxshi va yomon axloqlar shakllanmasidan oldin uni tarbiyalashni uqtiradi. Bolani tarbiyalash borsqichlarida, birinchi navbatda ularni rag‘batlantirish, yomonliklarga nisbatan tanbeh berish, agar bu yetarli bo‘lmasa, jazo berish aytiladi. Agar bu bosqichlar tugallanib, bola nisbatan yaxshi rivojlangan bo‘lsa, muqaddas kitobimiz bo‘lgan Qur‘onni o‘rgatish ota-onalarning eng muhim vazifalaridan biri deb hisoblaydi.

Mazkur bobda bolalarga ta‘lim-tarbiya berish, tarbiyalash bosqichlari, bolalarning ta‘lim muhitiga moslashishi, boshqa bolalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kabilar sinchkovlik bilan ko‘rib chiqiladi. Buyuk donishmand Ibn Sino ijtimoiy tarbiyaning farzand tarbiyasidagi roli haqida to‘xtalib, bola jamoada ta‘lim olsa, birga o‘ynasa, suhbatlashsa, bir-birining haqlarini tan olsa, ular kelajakda bir-birlarini hurmat qilishadi, ijtimoiy kapitali boy bo‘lgan adolatli va mas‘uliyatli fuqarolar bo‘lib yetishadi degan xulosani beradi. Shu bilan birga tarbiyachining bir nechta xislatlarini ham sanab o‘tadi. Jumladan, muallim aqlli, e‘tiqodli, bilimdon, vazmin, tarbiya borasida mohir, muloyim, shirinso‘zli, olijanob, obro‘li va o‘tkir zehnli bo‘lishi lozim, toki u doimo o‘z tarbiyalanuvchilariga o‘rnak bo‘lsin.

Shu bilan birga alloma farzanlarga hunar o‘rgatishda uning qobiliyatini hisobga olish juda muhimligini ta‘kidlaydi va shunday izohlaydi: “Har bir bolaga xohlagan hunar hamma vaqt muyassar bo‘lavermaydi. Balki faqat uning tabiatiga mos keluvchi hunargina qulaydir” [11].

Darhaqiqat, har bir inson o'ziga mos ish bilan shug'ullansa, u yashab turgan jamiyatdagi unumdorlik va taraqqiyot oshadi. Bu yerda ota-onalar farzandining qobiliyatlariga befarq bo'lmasliklari ta'kidlanadi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot hamda bilimga asoslangan jamiyatlarda ham aynan shu prinsip ishlaydi, ya'ni kuchli davlat har bir insonning qobiliyatini hisobga olib, ularning rivojlanishiga imkon yaratadi. Bolaga hunar o'rgatish bu ularga erta mustaqil bo'lishni, birovga qaram bo'lmasdan yashash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. Mazkur bobda Ibn Sino boy, zodagonlarning farzandlariga otasining boyligiga suyanmasligi ular uchun kasb-hunar o'rganishning zaruriyatlari haqida uqtiradi. Ular mehnat qilishni o'rganmagan taqdirda kelajakda mustaqil qaror qabul qila olmasliklari, doimo iqtisodiy qaram bo'lib yashashlari, muammolarni yecha olmasligi, bularning natijasi ma'naviy va ruhiy tushkunliklarga olib kelishi muqarrar ekanligi alloma tomonidan ogohlantiriladi.

Alloma farzanlarga hunar o'rgatish bilan birga jamiyatda o'z o'rnini topishni o'rgatish lozimligi haqida alohida ma'lumotlar beradi. Nihoyat oxirgi bosqichda, turmush qurish uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash ota-onalarning farzandlari oldidagi burchi deb biladi. Shu bilan ota-onaning farzandi oldidagi burchi o'z yakunini topib, farzand uchun oila qurish, yangi va mas'uliyatli qadam boshlanadi.

VII. Erkakning o'z xizmatkorlarini boshqarishi siyosati oxirgi va yakunlovchi bob bo'lib, bunda Ibn Sino xizmatkorlarni hayotda inson tanasining a'zolari kabi muhim ekanligi haqida aytib o'tadi. U bu borada shunday deydi: "Xizmatkorlarni boshqarish bu xuddi tana a'zolarini boshqarish kabidir". Haqiqatdan ham xizmatkorlar faqat ishchi kuchi bo'lib qolmasdan, balki rahbarning bir qismi alloma aytganidek ko'zi, qo'li va oyog'i hisoblanadi. Ya'ni mutafakkir xizmatchilarni faqatgina ishchi kuchi emas, balki boshqaruvchi tanasining bir qismi sifatida talqin qiladi. Bunda u rahbar va xodim o'rtasidagi munosabatlarning funksional jihatlarini, ya'ni ijro etish, harakat va axborot olish kabi jihatlarini birlashtiradi.

Zamonaviy boshqaruvda ham bu metafora funksional integratsiya nomi bilan ataladi. Mazkur bobda alloma xizmatchilarni tayinlashni Allohning buyuk ne'matlaridan bilib, Allohga ularni unga buysundirgani uchun shukronalar keltirish lozimligini aytadi. Xizmatkorlarni tanlashda rahbar farosat ilmini puxta bilgan holda ularni ziyraklik bilan sinchiklab tanlab olish kerak, deb uqtiradi alloma. Uning fikricha: "Inson xizmatkorni tanib, bilib, sinab ko'rib va imtihon qilgandan so'ng xizmatkor qilib olishi lozim. Agar sen bu ishlarni uddalay olmasang, farosating va hushyorliging bilan ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi va yurish-turishiga qarab xulosa chiqarish qobiliyating bilan ish ko'rishing kerak. Sen xizmatkorning turli xil betartib qiyofalaridan va qiyin tabiatlaridan albatta saqlan, chunki axloqlar xilqatga, ya'ni asliy xususiyatga, tabiatga ergashadi" [12].

Demak, rahbar hayotida xizmatchilar muhim rol o'ynaganlari tufayli ularning kimligini, kelib chiqishi, tavsiyalarini o'rganish, ularni amalda har xil topshiriqlar bilan sinash, psixologik barqarorligi, to'g'riligi hamda bilim-malakasini sinab ko'rish kerakligi juda muhimdir. Ibn Sino yuqoridagi xususiyatlar tekshirilib bo'lingach, xizmatkorning qaysi faoliyat uchun yaroqliligi, qaysi kasb va hunarga mos kelishi, u nimani yoqtirishi, mayli va ishtiyoqini ham inobatga olishni aytib o'tadi. Bu esa allomaning insonparvarligi hamda ziyrakligidan darak berib, o'z zamonasida inson qadrlarining yuksak baholaganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga Ibn Sino rahbar xizmatkorlarni o'z himoyasiga olishi, adolatsizlik va tashqi tahdidlardan himoya qilishi, ularning ahvoli va ehtiyojlarini tekshirishi hamda ularni e'tiborsiz qoldirmaslik lozimligini ham aytib o'tadi.

Afsuski, ko'plab rahbarlar xizmatchilarni faqat "resurs" deb bilishadi, ularning inson ekanligi, o'ziga xos xususiyatlari, tashvishlari, ehtiyoj va muammolari borligini unutishadi. Shayx ur-ra'is esa ularni Alloh tomonidan berilgan ne'mat deb bilib, inson sifatida ko'rishni hamda ularga g'amxo'rlik qilishni maslahat beradi. Xizmatkorlar qaysi ishda ustun bo'lsalar, shu ishga tayinlanib, ixtisoslantirilishi kerakligi alloma tomonidan aytilib o'tiladi. Ularni bir ishdan boshqasiga, bir kasbdan ikkinchisiga ko'chirilishini man etadi, chunki bu holatlar boshqaruvning buzilishiga asosiy sabab va omillardan biri ekanligi ta'kidlanadi. Ya'ni har bir kishi o'z ishi bilan shug'ullanishi kerak, chunki boshqa bir sohaga va o'ziga begona bo'lgan sohaga o'tsa, bu nafaqat insonning, balki butun bir tizimning inqiroziga olib kelishi mumkin.

Allomaning bu qarashlari sotsiologik nuqtayi nazardan jamiyatning funksional tuzilishi va barqarorligini tushinishda katta ahamiyat kasb etadi. Sotsiolog Emil Dyurkgeym ta'kidlaganidek, jamiyatning rivojlanishi mehnat taqsimotining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ibn Sinoning bir kasbdan ikkinchi kasbga o'tkazmaslik talabi ham jamiyatdagi funksional ixtisoslashuvni ifoda etadi. Alloma ushbu bobda xizmatchilarni chuqur taftish qilar ekan, ularni biror bir sababga ko'ra ishdan chetlashtirmoqchi yoki o'zgartirmoqchi bo'lsa, ularga nisbatan nohaq va qattiqqo'l bo'lmaslik kerakligini uqtiradi. Bunday qilish sabrsizlik va o'z ishiga yengil qarash belgisi deb biladi. Rahbar bu borada ratsional yondashib, ularning ko'nglini xotirjam etishi va ular bilan bo'lishi mumkin bo'lgan har bir muammolarda bosiqlik bilan to'g'ri qaror qabul qilishi lozim. Uning fikricha, xizmatkor toki o'zini xo'jayinning ne'matlariga o'z mulkidek munosabatda bo'lmasa, u unga chin dildan xizmat qilmaydi hamda mehribonlik ko'rsatmaydi.

Qachonki, xizmatkor kelajagi ishonchli emasligi hamda hurmati asossiz ekanligini bilsa yoki sezsa, uning xo'jayinga bo'lgan sadoqati va hurmati yo'qoladi. Shu sababdan ham Ibn Sino xizmatkorlarni ishdan bo'shatish yoki haydashdan ko'ra, ularni tarbiyalash, to'g'ri yo'l ko'rsatish hamda isloh qilishni maslahat beradi. U bu borada shunday deydi: "Xo'jayin o'z xizmatchilarini ishdan haydash, chiqarib yuborish va uloqtirishdan ko'ra, ularni xizmatda qoldirib, isloh qilish, tarbiyalash va to'g'ri yo'lga solish yo'llarini izlasin. Kimning xatosi bo'lsa, uni odob bilan tuzatsin, qiyshiq joyi bo'lsa, ta'lim-tarbiya bilan to'g'rilasin, uni qo'llab- quvvatlasin va xato qilganda avf etish bilan bag'rini keng qilsin. Ammo kim tavba qilganidan keyin yana xatosiga qaytsa, tavba qilgandan keyin ham qaysarlik qilsa va va'dasiga turmasa, shunda qattiqqo'llik bilan jazo berilsin, toki uning hayo tuyg'usi butunlay yo'qolmasin va qaysarligini davom ettirmasin. Kimki kechirilmas gunoh yoki jinoyat qilsa, unda uni xizmatda saqlashning iloji yo'qdir va siyosat qoidasiga tayangan holda buni kechirib bo'lmaydi. Bunda eng to'g'ri qaror bu bunday xizmatkordan tezroq qutulish kerak, aks holda u atrofdagi xizmatkorlarni ham buzadi".

Fikrimizga ko'ra, Ibn Sino xizmatkorlar bilan siyosat yurgizganda juda to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qilgan. Chunki gunohlarni avf etish va tarbiya berishga dastlabki ustuvorlik berish bu yetuk rahbarlikning belgilaridan biridir. Bu insonga ikkinchi imkoniyat bilan birgalikda jamoada hamkorlik va ishonch muhitini yaratadi. Birinchi yumshoq choralar, ya'ni nasihatlar va ta'lim-tarbiya berish, qayta qilingan xatoliklarga ogohlantirishlar berish, yana qaytarilganda esa qattiqqo'llik bilan jazo berish boshqaruvdagi samarali usullardandir. Ya'ni xizmatkorlar xiyonat, o'g'rilik kabi xislatlarga yo'l qo'ysa, bunday holatlar jamoaning ishlab chiqarish va ma'naviy muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sabab bunday holatlarda jazo muqarrar!

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ibn Sinoning "Kitob-as-Siyosat" risolasi Sharq tafakkurida amaliy falsafaning siyosiy strategiya bilan sintezining eng mukammal namunalaridan biri hisoblanadi. Bu risola Aristotelning "Siyosat" va "Nikomax axloqi" asarlaridan ilhomlangan holda yozilgan bo'lib, Ibn Sino ularga nisbatan ijtimoiy psixologiyani ilg'or darajada integratsiyalaydi. Alloma bu risolada amaliy aqlning uchta sohasini, ya'ni axloq, oila boshqaruvi hamda davlat boshqaruvini uyg'un holatda namoyon etadi. Shu bilan birga, mutafakkir kelajagimiz yoshlar qo'lida ekanligiga ishora qilib, har bir oilada sog'lom muhitda tarbiyalangan bola kelajakda jamiyatga sog'lom muhitni olib kirishi haqida ishora qiladi.

Shu bosqichlardan o'tgan komil insongina davlatni boshqarishga loyiq deb bilinib, oxirgi bosqich, qo'l ostidagilarning siyosati, ularni boshqarishga doir ko'rsatmalar berib boriladi. Shu bosqichlardan o'tgan rahbar yoki shaxs ideal davlat xizmatchisi bo'la olishini kitobxon Abu Ali Ibn Sinoning "Kitob-as-Siyosat" risolasi bilan tanishgandan keyingina yaqqol tasavvurga ega bo'lishi muqarrar.

Shu sabab, biz buyuk daholarimiz yozib qoldirgan kitoblarni o'qib, tarjima qilib, keyingi avlodlarga yetkaza olsak, biz buyuk mutafakkirlarimiz oldidagi ma'naviy burchimizni to'la ado etgan bo'lamiz.

## Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Durkheim E. De la division du travail social. Paris: Félix Alcan. 1893 (Ijtimoiy mehnat taqsimoti to'g'risida)
2. Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft. Grundriß der verstehenden Soziologie. 1922 (Iqtisod va jamiyat)
3. P. Bourdieu "The Forms of Capital!". In: Richardson, J. (ed.) Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood Press, 1986 pp. 241–258. (Kapital shakllari)
4. Parsons T. The Social System. Glencoe, IL: The Free Press, 1951 (Ijtimoiy tizim).
5. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 57 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 57 b.)
6. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 59 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 59 b.)
7. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 65 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 65 b.)
8. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 73 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 73 b.)
9. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 79 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 79 b.)
10. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 83 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 83 b.)
11. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 86 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 86 b.)
12. ابن سينا، أبو علي الحسين بن عبد الله. كتاب السياسة / تقديم وضبط وتعليق: علي محمد أسبر. - ط1. - سوريا: دار بدايات للطباعة والنشر، 2007. - 90 ص (Ibn Sino, Abu Ali Husayn ibn Abdulloh. *Kitob as-siyosa*. - Suriya: Bidayat nashriyoti, 2007. - 90 b.)

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000